

## BADIY MATNDA TOPONIMLARNING QQ'LLANISH XUSUSIYATLARI (XAYRIDDIN SULTON ASARLARI MISOLIDA)

Gazibekova Sohiba Yusupovna, TDYU qoshidagi akademik litsey  
olity toifali o'qituvchisi

### ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТОПОНИМОВ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТЕКСТЕ (НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ХАЙРИДИНА СУЛТАНА)

*Газибекова Сохиба Юсуповна, преподаватель высшей  
категории академического лицея при ТГЮУ*

### FEATURES OF THE USE OF TOPOONYMS IN ARTISTIC TEXT (ON THE EXAMPLE OF THE WORKS OF HAYRIDDIN SULTAN)

Gazibekova Sohiba Yusupovna, Teacher of the highest category  
of the academic lyceum at TSUL

**Annotatsiya:** Maqolada toponimlarning badiiy matndagi o'rni, lingvopoetik vosita sifatidagi ahamiyati Xayriddin Sulton asarlari misolida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** lingvopoetik tahlil, badiiy matn, tarixiy matn, zamonaviy matn, toponim, so'z qo'llash mahorati, ifodalilik.

**Abstract:** The article discusses the role of toponyms in literary texts and their significance as a linguopoetic tool using the works of Hayriddin Sultan as an example.

**Key words:** linguopoetic analysis, literary text, historical text, modern text, toponym, vocabulary, expressiveness.

**Аннотация:** В статье рассматривается роль топонимов в художественных текстах и их значение как лингвопоэтического средства на примере произведений Хайриддина Султана.

**Ключевые слова:** лингвопоэтический анализ, художественный текст, исторический текст, современный текст, топоним, лексика, экспрессивность.

### KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION)

Badiiy matnda toponimlar alohida estetik vazifani bajaradi, ijodkorning badiiy niyatiga xizmat qiladi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, badiiy asar tilidagi geografik joy nomlarini o'rganish, avvalo toponimika ilmini rivojlantirish uchun muhim

bo'lsa, so'ngra yozuvchi uslubini belgilash uchun ham ahamiyatlidir<sup>1</sup>. Bu jihatdan tarixiy asarlar matnida qo'llangan toponimlarni leksik-semantik juhatdan o'rganish dolzarbligini belgilaydi. O'zbek tilshunosligida F.Is'hoqov, B.Umurqulov, B.Choriyev, D.Andaniyazovalar<sup>2</sup> tomonidan badiiy matnda turli

<sup>1</sup> Киличев Э. Бадий тасварнинг лексик воситалари. – Тошкент: Фан, 1982. –Б. 62–63.

<sup>2</sup> Исҳоқов Ф. “Зарбулмасал”даги топонимлар ҳакида / Лексика, стилистика ва нутқ маданияти масалалари. – Тошкент, 1980. – Б. 56-70; Умуркулов Б. Стилистические функции топонимов в поэзии Гафура Гуляма / Материалы

конференции по ономастике Узбекистана. – Джизак, 1985. – С. 28-29; Чориев Б.Faфур Ғуломнинг топонимлардан фойдаланиш маҳорати // Ономастика Узбекистана, 1989. – С. 95-96; Анданиязова Д. Бадий матнда ономастик бирликлар лингвопоэтикаси. Филол. фан. б. ф. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2017. –Б. 160.



<https://orcid.org/0009-0002-1626-7060>  
e-mail:  
[sohibagazibekova@gmail.com](mailto:sohibagazibekova@gmail.com)

maqsadlar bilan qo'llanadigan toponimlarning uslubiy xususiyatlariga bag'ishlangan ishlar tadqiq qilingan. Tilshunos T.Qurbanov esa tadqiqotlarida tarixiy badiiy asar tilidagi toponimlar tahlili haqida fikr yuritgan va tarixiy romanlarda qo'llangan toponimlarning ahamiyatini ochib bergan<sup>3</sup>. D.Andaniyazova esa dissertatsiyasida "...Xoh u tarixiy bo'lsin, xoh boshqa bir mavzudagi asar, undagi toponimlarni ham badiiy matnni shakllantiruvchi vositalardan biri sifatida baholash mumkin", deydi. Bizningcha ham, badiiy matndagi toponimlar, avvalo, ijodkorning matndagi mazmunni ifodalashdan ko'zlagan maqsadini nazarda tutishi bilan ahamiyatlidir.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).** Tarixning har lahzasini tadqiq va tahlilga munosib ko'rga<sup>4</sup> Xayriddin Sultonovning katta jasorat bilan qo'l urilgan tarixiy mavzuga bag'ishlangan "Boburiynoma" asarida uchraydigan ayrim joy nomlarining asar tiliga o'z ta'sirini o'tkazganini ko'rish mumkin. Ayniqsa, "Boburiynoma" tarixiy romanida qo'llangan toponimlar joy nomlarining eng mumtoz namunalari hisoblanadi. Ta'kidlash kerakki, Xayriddin Sulton asarlaridagi toponimlarni to'plash va kompleks tahlil qilishning ahamiyatli jihatni shundaki, bu orqali ijodkor mahoratini belgilash, asarda qo'llangan joy nomlari tasnifi orqali tomonimlarning lingvopoetik xususiyatlarini yoritish, joy nomlarining izohli etimologik lug'atini tuzishda, tarixan taqqoslab o'rganishda amaliy ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

**MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/ DISCUSSION).** Maqolada Xayriddin Sulton asarlarida qo'llangan respublikamiz hududidagi joy nomlari ikki guruh asosida tahlil qilindi:

1. Tarixiy toponimlar. Oldin qo'llangan, ammo hozirgi kunda boshqa nomga o'zgargan joy nomlari. Masalan: *Obburdon, Farkat, Shosh, Chir, O'sh*.

**Obburdon.** Ushbu toponim ensiklopediyada Zarafshon tizmasining o'rta qismidagi qishloq nomini ifodalaydi.

<sup>3</sup> Курбонов Т. Бадиий асарлардаги топонимларнинг лингвистик таҳлили ва изохи масалалари. – Самарқанд, 2006. – Б. 74.

<sup>4</sup> Xayriddin Sulton. Boburiynoma. – Toshkent: Sharq nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 1997.

"Boburnoma"da Mascho tog'idagi qishloq deyilgan va shu yerdagi dovon Obburdan dovoni nomlari bilan tilga olingan<sup>5</sup>. "Boburiynoma"da esa *Obiburdon* tarzida nomlangan.

– Yo qudratingdan! – deya xitob qildi Bobur. – Axir, biz bir paytlar Kobul sari otlanganda xuddi shundog' yo'l tustmish edik! Siz esa, bukun go'yo bilgandek, ortimizdan izma-iz yurib kelibsiz. Vo ajab! **Obiburdon** oshgan chog'imiz bir chashma labida to'xtab edik. Shu chashma yoqasida bir toshga bayt ham yozdirib edim ("Boburiynoma", 319-bet).

**Farkat.** Toshkent viloyatidagi qadimiy shaharlardan biri bo'lib, hozirgi nomi Parkent (ayni paytda shu nomdag'i tuman markazi)<sup>6</sup>. Xayriddin Sulton ham asarida Samarqand qamalidan chiqqan Boburning Samarqanddan Farkatga kelgan hazrati Xojago Xojani ziyorat qilish maqsadida Farkatga kelganini bayon etadi. Masalan: Ajab yangilik: *Bobur Mirzo Parkentda bo'lgan ekan!* "Boburnoma"ning 152-sahifasida: "Hazrati Xojago Xoja Samarqanddan chiqib kelib, **Farkatda** o'ltirib edilar. Farkatga borib Xojani ko'rdim ("Boburiynoma", 19-bet).

Demak, "Boburiynoma" asari orqali *Farkat* toponimining hozirgi Toshkent viloyatidagi Parkent tumanining tarixiy nomi ekanligini anglash mumkin. Ijodkor badiiy matnda makon va zamon tamoyilidan kelib chiqib har ikkala toponimni, ya'ni *Farkat* va *Parkent* joy nomlarini o'rniga qarab qo'llayvergan.

**Shosh.** Movarounnahrning qadimiy yirik shaharlardan bo'lgan Toshkentning qadimiy nomlaridan biri Shosh toponimidir. "Boburnoma"da Toshkand tarzida ham tilga olinadi. Xayriddin Sulton esa "Boburiynoma" asarida tarixiy matnlarda *Shosh, Toshkand* tarzida, zamonaviy vogeliklar bayon qilingan o'rnlarda esa *Toshkent* o'rin-joy nomi bilan ham tilga oladi. Masalan: *Shu boisdan ham Bobur Mirzo Toshkentni mudom ehtirom bilan tilga olgan*: "...ul fursatda **Toshkand** viloyati Umarshayx Mirzo tasarrufida edikim, kitoblarda **Shosh** bitirlar, ba'zi **Choch** bitirlarkim, "kamoni chochiy" andin iborattur". Shahri azim **Toshkent**

<sup>5</sup> Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi. – Toshkent: Sharq nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2014, 404-bet.

<sup>6</sup> O'sha asar. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2014, 523-bet.

*Bobur Mirzo hayotida muhim o‘rin tutgan (“Boburiynoma”, 50-bet).*

**O‘sh.** Farg‘ona vodiysidagi qadimiy shaharlardan biri bo‘lib, ammo hozirgi kunda Qirg‘iziston Respublikasining O‘sh viloyati markazi nomi hisoblanadi<sup>7</sup>.

*Xiyla vaqt so‘zsiz-sadosiz qoldilar. Quyosh bog‘ ortida jimirlab oqayotgan Jamna suviga zar kokillarini yuvmoqda edi. Nihoyat Bobur intihosizdek tuyulgan jimlikni buzib: -O‘shning oqshomlari ham ko‘p so‘lim, tarovatli bo‘lur, -dedi. Hofiz Kuykiy bosh irg‘ab qo‘ydi.*

— Bu olamda men kezmagan yurt kam qoldi, — deb davom etdi Bobur o‘ychan ohangda. — Ne-ne go‘zal maskanlarni zabit etmadim! Lekin hech qayda O‘shdek latofatlig‘ bir viloyatni ko‘rmadim (“Boburiynoma”, 324-bet).

2. Zamonaviy topominlar. Hozirgi kunda tilda mavjud bo‘lgan respublikamiz hududidagi joy nomlari. Bu topominlar matnda ifodalangan g‘oyaning shakllanishiga, tarixiy voqealardan zamonaviy davr voqeliklariga almashinuv jarayonlarini ifodalashga va albatta, badiiy mazmunning ekspressivligini oshirishga xizmat qilgan. Masalan: *Somsarak, Andijon, Samarqand, Sebzor, Yunusobod, Farg‘ona*.

**Somsarak.** Ohangaron daryosi vodiysidagi shahar nomi bo‘lib, Piskent shahriga yaqin joylashgan. Somsarak Bobur Mirzoning qadami tekkan, balki umridagi og‘ir va fojiali bir voqeani ayni shu yerda boshidan kechgan, ya‘ni yaqin jangovar safdoshi No‘yon ko‘kaltosh jardan qulab vafot etadi. Bu holat Boburga juda qattiq ta’sir qilgani, o‘n haftagacha voqeadan ta’sirlanib yig‘lab yurgani haqidagi ma’lumotlarni asardan o‘qish mumkin. “Oy botgan pallada” Bobur Mirzoning Parkent va *Somsarakda* kechgan chaqmoqday qisqa va yorqin kunlari haqida yozganlarimni Toshkentga qaytgach, mashinkalab, birorta esi butun odam o‘qishi kerak (“Boburiynoma”, 19-bet).

**NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).** Tilni undan foydalanuvchi shaxsning

nutqiy faoliyati, ruhiyati, ijtimoiy holati va albatta, makon va zamon mutanosibligi bilan bog‘liq holda tadqiq etilish dolzarb vazifalardan biridir.

**XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)** “Boburiynoma”da tarixiy va zamonaviy matnlar o‘rni bilan aralash holda qo‘llanadi. Bir o‘rinda ijodkor tomonidan zamonaviy matnlarga murojaat etilsa, boshqa bir o‘rinda Bobur yashagan davr tilidagi matnlar uchraydi. Ammo, tarixiyligiga ko‘ra iste’mol darajasi cheklangan leksik birliklarga mansub toponimlar qo‘llanishi qaysi bir davr haqida gap ketayotganini anglatib turadi, mazkur matnni yanada yaxshiroq tushunishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, joy nomlari qiyos obyekti bo‘lib kelganda ifodadagi ta’sirchanlik, tushunarilik kuchli namoyon bo‘ladi.

#### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Қиличев Э. Бадий тасвирнинг лексик воситалари. – Тошкент: Фан, 1982. – Б. 62–63.
2. Исҳоқов Ф. “Зарбулмасал”даги топонимлар хақида / Лексика, стилистика ва нутқ маданияти масалалари. – Тошкент, 1980. – Б. 56–70.
3. Умуркулов Б. Стилистические функции топонимов в поэзии Гафура Гуляма / Материалы конференции по ономастике Узбекистана. – Джизак, 1985. – С. 28–29.
4. Чориев Б. Гафур Гуломнинг топонимлардан фойдаланиш маҳорати // Ономастика Узбекистана, 1989. – С. 95–96.
5. Анданиязова Д. Бадий матнда ономастик бирликлар лингвопоэтикаси. Филол. фан. б. ф. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2017. – Б. 160.
6. Курбонов Т. Бадий асарлардаги топонимларнинг лингвистик таҳлили ва изохи масалалари. – Самарқанд, 2006. – Б. 74.
7. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyyati. 2014, 404-bet.
8. Xayriddin Sulton. Boburiynoma. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyyati. 1997.

<sup>7</sup> O‘sha asar. Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyyati. – Toshkent. 2014. – B. 603.